

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

RAXMONOVA GULZODA G‘ANIYEVNA

MA’NAVIYAT VA IJTIMOYIY ONG BOG‘LIQLIGI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Raxmonova Gulzoda G‘aniyevna

Ma’naviyat va ijtimoiy ong bog‘liqligi.....3

Рахмонова Гулзода Ганиевна

Взаимосвязь духовности и общественного сознания23

Rakhmonova Gulzoda Ganiyevna

The relationship between spirituality and social consciousness..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ.

List of works published.....50

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

RAXMONOVA GULZODA G‘ANIYEVNA

MA’NAVIYAT VA IJTIMOYIY ONG BOG‘LIQLIGI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fal995 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Erkayev Abdurahim Pandjiyevich
falsafa fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Teshayev Nutfillo Nasrullayevich
falsafa fanlari doktori, professor

Norqulov Dusmurod Toshpulatovich
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Shaxrisabz davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.08.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "31" iyul soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65)221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (943 - raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65)221-29-14; faks: (0365)221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "16" iyul kuni tarqatildi.

(2026-yil "16" iyul dagi 24 raqamli reyestr bayonnomasi.)



B.B. Namozov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

A.Z. Sharipov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

N.O. Safarova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar, beqaror jarayonlarda neoliberalizm g'oyalari sivilizatsiyalar o'rtasidagi to'qnashuv nazariyasini ilgari surib, an'anaviy milliy hamda umuminsoniy axloqiy qadriyatlarning muhim qismini eskirgan deb baholab, ularni inkor etishi ijtimoiy ong mazmuni va shakllarida tub o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Inson tafakkuri va ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi bilan birga, ommaviy madaniyatning kengayishi, virtual voqelikning kuchayishi, qadriyatlar transformatsiyasi va mafkuraviy ta'sirlarning ortishi milliy ma'naviyat, ijtimoiy ong va ma'naviy barqarorlikka nisbatan yangi tahdidlarni yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda ma'naviyat va ijtimoiy ong o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, ularning jamiyat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatish mexanizmlarini hamda ijtimoiy o'zgarishlar jarayonida namoyon bo'lish xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va yetakchi ilmiy markazlarda ma'naviyat, shaxsning o'zini anglash va aqliy tarbiya, axloqiy qadriyatlar tizimi borasida keng tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu sababdan yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini mustahkamlash, zamonaviy axborot maydonida yuzaga kelishi ehtimol bo'lgan, jamiyatning siyosiy barqarorligi hamda ijtimoiy-ma'naviy rivojiga g'oyaviy yoki psixologik tahdidlar orqali salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillarning profilaktika qilish va kamaytirish, ma'naviyatning ijtimoiy ongning turli shakllari bilan o'zaro bog'liqligi va dialektik aloqalarini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda. Ayniqsa, ma'naviyat taraqqiyotiga ijtimoiy ongning turli ko'lamdagi ko'rinishlari va shakllarining ta'sirini, ma'naviyatni mazmun-mohiyati hamda u ifodalaydigan qadriyatlar tizimi tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

O'zbekistonda jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy hayotini rivojlantirish, Uchinchi Renessansning ma'naviy asoslarini yaratish, adabiyot va san'at, madaniyat, ilm-fan, yangi texnologiyalar, raqobatbardosh kreativ fikrlaydigan kadrlar tayyorlash borasida islohotlar olib borilmoqda. "Insoniyat tarixiga nazar solinsa, dunyodagi ko'plab xalqlar avvalo, o'zining ma'naviy birligi va milliy g'oyasi orqali yuksalishga erishganiga guvoh bo'lish mumkin. Ma'naviy rivojlanish bu -vijdon, or-nomus va adolatni muqaddas bilib, el-yurt manfaati uchun astoydil harakat qilish demakdir. Ma'naviyat – jamiyat taraqqiyotini belgilovchi asosiy mezondir. Chunki odamlarning ma'naviyati yuksalgandagina jamiyatda tinchlik, xotirjamlik va taraqqiyot bo'ladi. ...Darhaqiqat, agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir"¹. Shu bois ma'naviyat va ijtimoiy ongning o'zaro bog'liqligi, ularning shaxs kamoloti, ijtimoiy barqarorlik va milliy taraqqiyotni ta'minlashdagi o'rnini ochib berish, Yangi O'zbekistonni barpo etuvchi, Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etuvchi va mustaqil fikrga ega avlodni shakllantirishda ma'naviyatni modernizatsiya qilish va yuqori bosqichga olib chiqishning obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillarini asoslash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. –Тошкент: "O'zbekiston", 2024. – Б.260-261

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 4-martdagi PF-6181-son “2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 31-dekabrda 1059-son “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2026-yil 28-yanvardagi 34-son “Uzluksiz ta‘lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” qarorlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ma‘naviyat masalalariga bag‘ishlangan juda ko‘plab asarlar, monografiyalar, kitoblar xorijda va respublikamizda chop etilgan. Xususan, bu masalada turli davrlarda yashab ijod qilgan shaxslarning turlicha yondashuvlari mavjud. Antik davrda ma‘naviyat, axloq va ruhiy kamolot masalalariga ko‘plab faylasuflar e‘tibor qaratgan. Ayniqsa qadimgi sharq, yunon va rim falsafasida bu mavzu markaziy o‘rin tutgan. Jumladan, qadimgi Xitoy mutafakkiri Konfutsiy, yunon faylasuflari Platon (Ma‘naviyatni ruhning mukammallikka intilishi deb tushuntiradi) va Aristotel (fazilat va me‘yor), Suqrot (Ma‘naviyatni insonning o‘zini anglash bilan bog‘laydi) kabi allomalarning jamiyat axloqi va yoshlar tarbiyasiga oid qarashlari ma‘naviyat masalasiga daxldordir².

XVIII-XIX asrlarda I.Kant, Jan Jak Russo, G.Gegel, L.Fayerbax kabi olimlar qarashlarida ma‘naviyat tushunchasi axloqiy burch va erkinlik, ruh, ezgulik, insonparvarlik, tarbiya masalasi sifatida izohlangan. XX asrga kelib shaxs va jamiyat ma‘naviyatining shakllanish qonuniyatlarini o‘rganish ijtimoiy falsafaning ahamiyatli muammolaridan biriga aylandi. Bu davrda yashab, turli sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib borgan Z.Freyd, Adrian Vam Kaam, Morgan Diane, Erix Fromm va boshqa olimlar inson ma‘naviyatini o‘z sohalaridan kelib chiqib tadqiq qiladi. G‘arb

² Конфуций. Сухбатлар ва мулохазалар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2014. – 456b.; Платон. Политик. Законы. Послезаконие. Письма. – М.: Письма, 1999. – 159 с.; Arastu “Axloqi Kabir”. Ikkinchi kitob. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2015. – 423 b.; Platon. Kriton. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2018 (o‘zbekcha tarjima). – B. 45–52.

qarashlarida ma'naviyat ko'proq ruhoniyat, botiniy his-tuyg'ular, intuitsiya, diniy madaniyat sifatida tushuniladi. Masalan, Adrian Van Kaam "ma'naviyatni transsendsiya bilan bog'lagan". Morgan Diane "Ma'naviyat bu imonni qabul qilgandan keyin shaxsiy imon harakatini amalga oshirishning ma'naviy amaliyoti", deb izoh beradi. Aylin Barkerning fikriga ko'ra, ma'naviyat dindorlikdan farq qiladi, chunki ikkinchisining manbai retseptlar va urf-odatlar ko'rinishidagi tashqi dunyo, ma'naviyat manbai esa insonning ichki tajribasi hisoblanadi. V.Frankl tomonidan "Ma'naviyat insondagi konstitutsiyaviy (ya'ni tuzilmaviy) xususiyat. Ma'naviyat, ma'naviy haqiqat bo'lmasa yolg'izlik, begonalashish zulmati, odam o'zini yo'qotishning turli shakllari paydo bo'lishidir" kabi ta'riflar ham berilgan³.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlari ilm-fanida ma'naviyatning rivojlanish qonunlari, inson ma'naviyatining shakllanish qonuniyatlari xususida A.R.Davudova, M.M.Dalgatov, L.A.Belyayeva, Y.V.Gaynutdinova, E.A.Stepanova, N.Andryushina, Kazim Azimov kabi olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Ma'naviyatga transsendental, providensial va boshqa har xil idealistik, falsafiy antropologizm, psixoanalitik yondashuvlar ham g'arb ilm-fanida mavjud. Ularning ba'zi fikrlari chuqur mazmunga ega bo'lib, bugun ham ahamiyatini yo'qotgan emas. Masalan, N.A.Berdyayev "shaxsning yaxlitligi va birligini, uning doimiy o'zgaruvchanligi, ijodkorligi va faoliyatidagi o'ziga xos qiyofasini saqlab qoladigan kuchlar bu ma'naviy asoslardir" deb izohlagan. L.P.Karsavik "inson o'z-o'zini anglashi ma'naviyat" deya ta'rif bergan. G'arbda ma'naviyatni iqtisodiyot bilan bog'lab tatbiq etilgan holatlar ham bor. Masalan, S.Bulgakov "ma'naviyat mehnat va "iqtisodiyot ruhi" bilan bog'liq. M.Gorkiy "ma'naviyat – individual yadro" deb ta'riflagan. Lekin birortasi ma'naviyat rivojlanishi ichki qonuniyatlari, mexanizmlari, ma'naviyat kategoriyasi mazmunining hajmi, qismlari va elementlari to'g'risida so'z yuritmaydi⁴.

³ Кант И. Основы метафизики нравственности. Москва: Эксмо, 2007. – 176 б.; Роуссеау Ж.-Ж. Эмил, или о воспитании. Москва: Аст, 2018. – 512 б.; Хегел Г.В.Ф. Феноменология духа. Москва: Наука, 2000. – 480 б.; Феурбач Л. Сушность христианства. Москва: Мйсл, 1988. – 400 б.; Фрейд С. Цивилизация и ее недовольство. Москва: Эксмо, 2011. – 320 б.; Van Kaam A. Formative Spirituality. New York: Crossroad, 1986. – 312 p.; Morgan D. Essential Islam: A Comprehensive Guide to Belief and Practice. Santa Barbara: ABC-CLIO, 2009. – 320 p.; Фромм Э. Здоровое общество. Перевод. Т.В.Банкетова, С.В.Карпушина. Издание на русском языке AST Publishers. — М.: 2011 г., — 480 с.; Barker A. Ethics and Human Values in Modern Society. London: Routledge, 2015. – 260 p.; Франкл В.Е. Человек в поисках смысла. Москва: Прогресс, 1990. – 288 б.; Д.А.Леонтьев. Духовность. Энциклопедия эпистемологии и философии науки. Составления и общая редакция. И.Т.Касавин. Москва: «Канон» РООИ. «Реабилитация», 2009. С.217-218. – 1248 с.; Абрасимов Б.Н. «Духовность – личности в контексте русской идеи XX века». Journal.seun.ru. – 2021.

⁴ Давудова А. Р., Далгатова М. М., Магомедханова У. Ш. Личностные ценности студентов с интернальным и экстернальным локусом контроля // Мир науки, культуры, образования, 2016, № 4.- С.147-151.; Беляева Л.А. Человек и его потребности. Учебное пос. / Урал. гос. пед. ун-т. — Екатеринбург, 2009. – С.165.; Azimov K.A. The Problem of Man in Religious and Philosophical Doctrines of Zoroastrianism and Islam. Baku: Elm, 2003. – 303 p.; Степанова Э.А. Новая духовность и старые религии. Научно – теоритический журнал «Религиоведение» — 2011.; Андрияшина Н.Е. Духовный мир личности как социально-философская проблема: Автореф. дисс..канд. ф.н. – М.:МППГУ, 1992.; И.Т.Касавин. Москва: «Канон» РООИ. «Реабилитация», 2009. — С.217-218. – 1248 с.; Бердяев Н.А. Философия свободного духа. М. 1994. С.297. Лосский Н.О. Бог и мировое зло. М. 1994. С.284.; Бердяев Н.А. Царство духа и царство кесаре. – М., 1995. – С.272-273.; Бердяев Н.А. Философия свободного духа. – М., 1994. – С.445. Лосский Н.О. Избранное. – М., 1991. – С.526-531; Карсавик Л.П. Религиозно-философские сочинения. В.2-хт. – М., 1992. Т1. – С.19,77.; Булгаков С.Н. Сочинения в 2-х т. – М.,1993. Т1. – С.232-234.; Франкл В. Человек в поисках смысла. Сборник. – М., 1990. – С.94.; Богданов А. Наука об общественном сознание. – М., 1914. – С.203.; Эмил Дюркгейм «Общественное сознание. Полит.ру. архивировано 2009.

O'zbekistonda ma'naviyatning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatiga oid ko'plab ilmiy tadqiqot asarlari, monografiyalar, maqolalar, ilmiy-ommabop kitoblar nashr etildi. B.Namozov, Q.Nazarov, A.Erkayev, B.Tuychiyev, M.Pardayeva, S.Choriyev, N.Safarova, N.Teshayev, T.Norqulov, B.Omonov, A.Sharipov, B.Turdiyev, O.G'aybullaev, T.Xo'janova, G.Masharipova asarlarida, G.Ismoilova, A.Qurbonov, SH.Boybekova, E.Boratov ilmiy tadqiqot ishlarida barkamol shaxs tarbiyasida ma'naviyatning o'rni va uning rivojlantiruvchi kuch ekanligi tadqiq etilgan. M.Quronov, N.Jo'raev, J.Yaxshilikov, N.Muhammadiyev, O'.Abilov, I.Ergashev asarlarida milliy yuksalishning g'oyaviy masalalari tahlil qilingan⁵.

Tadqiqot olib borish jarayonida mavzuga oid tadqiqotlar, olimlarning ilmiy qarashlari hamda nazariy tahlillari metodologik ahamiyat kasb etdi. Shu bilan birga, ma'naviyat va ijtimoiy ongning o'zaro ta'siri, ularning tizimli yaxlitlik sifatida rivojlanish qonuniyatlari hamda ijtimoiy ong shakllarining ma'naviyat tizimidagi o'rni masalasi yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan. Ayniqsa, ma'naviyatning ijtimoiy ong shakllari bilan dialektik aloqadorligi, ijtimoiy ongning o'zgarishlarning ma'naviyat transformatsiyasiga ta'siri va ma'naviyatning ijtimoiy ongni takomillashtirishdagi funksiyalarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan yaxlit konseptual yondashuv asosida tahlil qilishga ehtiyoj saqlanib qolmoqda. Ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, mazkur tadqiqotda ma'naviyat va ijtimoiy ongning o'zaro dialektik aloqalarini tadqiq etishga e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq A-1-173 raqam "Barkamol inson shaxsini shakllantirishning obyektiv shart-sharoitlari va subyektiv omillari" (2025-2030 yy) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

⁵ Namozov B.B. Muhammad Porso asarlarida tasavvufiy ontologiya masalalari // Proceeding of 2nd global Congress on contemporary sciences and advancement. – Iran, Shirvan, 2020. – B.52-56.; Nazarov Q. National idea and development strategy of Uzbekistan. // National Society of Philosophers of Uzbekistan – Tashkent, 2019.; Pardayeva M.D. Qadriyatlarimizni qadrlaylik.// Inson – Jamiyat – Davlat: ijtimoiy taraqqiyot omillar" mavzusidagi 5- Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Buxoro, 21.05.2025. – B.4.; Tuychiyev B. T. Роль информатизации общества в развитии политической культуры // Мустақил Ўзбекистон. 1997.; Эркаев А. Маънавиятшунослик. 2-қисм. – Т.: Маънавият., 2018.; N Safarova. Museums as a factor of lifelong education in the formation of historical consciousness. — Theoretical & Applied Science, 2018.; N.N.Teshayev. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar – fuqarolik jamiyati rivojlanishining ma'naviy omili. \ "Inson – Jamiyat – Davlat: ijtimoiy taraqqiyot omillar" mavzusidagi 5- Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Buxoro, 21.05.2025. – B.15. Faybullov O. Naфosat falsafasi.- Samarqand: Samarqand davlat чет тиллар институти нашр., 2017; Шарипов А. Янги Ўзбекистонда маънавий-мафкуравий ислохотлар: ижтимоий-фалсафий таҳлил. Монография. – Бухоро, 2021.; Турдиев Б.С. Ўзбекистонда демократик жамият ривожланишида маънавий янгиликлар стратегияси: Фалс.д. (PhD) дисс. автореф. – Бухоро: БухДУ; 2021; Хо'janova T., Masharipova G. "Kasbiy ma'naviyat". – Surxondaryo. Fan-ziyo. 2022.; Raxmatova X. "Ma'naviyat va din" Urganch davlat universiteti. Lesson press. 2024. Куронов М. Бетакдоримсан, ягонасан, она ватаним, Ўзбекистоним. -Тошкент: Маънавият, 2015. -160 б.; Жўраев Н. Ўзбекистоннинг маънавият стратегияси. -Тошкент: Маънавият, 2016. -32 б.; Яхшиликков Ж.Я., Муҳаммадиев Н.Э. Миллий ғоя -тараққиёт стратегияси. Монография. -Тошкент: "Фан", 2017. -424 б.; Абилов Ў. Ўзбекистон тараққиётининг оптимистик руҳи. -Тошкент: 2003. -208 б.; Эргашев И., Худойбердиев Х., Қахрамонов А. Ўзбекистоннинг мустақил тараққиёт йўли ва мафкуравий жараёнлар. -Тошкент: Ижод дунёси, 2002. -32 б.; Чориев А. Инсон фалсафаси. Ижтимоий тарбия. Учинчи китоб.- Қарши: Илм-фан-маънавият, 2024.- Б.193.; Pardayeva M.D. "Yangi O'zbekiston: ajdodlarimizning boy merosi va qo'shnichilik munosabatlari" //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 1, no. 7, 2021, pp. 371-378.

Tadqiqotning maqsadi ma'naviyat va ijtimoiy ong o'rtasidagi dialektik bog'liqlik asosida ijtimoiy ong shakllarining ma'naviyat tizimidagi o'rni va funksional ahamiyatini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ma'naviyat va ijtimoiy ongning ijtimoiy-falsafiy mohiyati, tarkibiy tuzilishi hamda o'zaro bog'liqligini nazariy-metodologik jihatdan tahlil qilish;

ijtimoiy taraqqiyot jarayonida ma'naviy yangilanishlar jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

ijtimoiy ong shakllarining ma'naviyat tizimiga ta'siri va uning takomillashuvidagi rolini asoslash;

ma'naviy ong va ma'naviy madaniyat elementlarining ma'naviyat tizimi rivojidadagi ahamiyatini aniqlash;

ta'lim-tarbiya tizimidagi islohotlarning barkamol shaxsni shakllantirish, ijtimoiy ongni yangilash va ma'naviyatni yuksaltirishdagi o'rnini asoslab berish;

insonning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishida obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillarning ma'naviy taraqqiyotdagi ahamiyatini hamda Yangi O'zbekistonni barpo etishda o'rnini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida ma'naviyat va ijtimoiy ong o'rtasidagi dialektik aloqadorlik hamda Yangi O'zbekiston sharoitida kechayotgan ma'naviy yangilanish jarayonlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini ma'naviyatning ijtimoiy ong shakllari bilan o'zaro ta'siri, ularning ma'naviyat tizimidagi funksional o'rni, ma'naviy yuksalishning obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ma'naviyat taraqqiyotiga ijtimoiy ongning aksiologik, reprezentativ va regulativ funksiyalarining ma'naviy qadriyatlarni saralash va iyerarxialashtirish, shaxs va jamoa faoliyatini yo'naltirishga qaratilgan funksional-determinant ta'siri hamda falsafiy, axloqiy, siyosiy-huquqiy shakllarining qadriyatlarni tanlash, ijtimoiy me'yorlarni legitimlashtirish va shaxs ma'naviy identikligini shakllantiruvchi xususiyatlari ochib berilgan;

rivojlanish jarayonida ma'naviyat butun sifatida ijtimoiy ong shakllariga tizimli (ong shakllarini ma'naviy butunlik doirasida uyg'unlashtiruvchi), integrativ (funksional va aksiologik aloqalarni bir maqsadga yo'naltiruvchi) va yo'naltiruvchi (ijtimoiy xulq-atvor, munosabat va faoliyat mezonlarini belgilab beruvchi) ta'sir etishi, qism sifatida esa kishining ijtimoiy ideal va maqsadlariga qadriyatli-motivatsion (shaxs ma'naviy ehtiyoji, intilishi va e'tiqodini faollashtiruvchi), faoliyatga undovchi (amaliy harakat va ijtimoiy faollikka aylantiruvchi) tizim sifatida ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan;

ma'naviyatning insonparvar mazmun-mohiyati hamda u ifodalaydigan milliy o'zlikni anglash, adolat, vatanparvarlik, mas'uliyat, bag'rikenglik va jamoaviy hamjihatlikka asoslangan qadriyatlar tizimi jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy muhitiga determinant aloqadorligi, ma'naviyatning inson va jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy

ravishda aloqadorlikda rivojlanib borishi esa shaxsning ma'naviy kamoloti, ijtimoiy munosabatlarning barqarorlashuvi va milliy taraqqiyotning qadriyatli asoslari orqali namoyon bo'lishi aniqlashtirilgan;

Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etuvchi avlodni shakllantirishda ma'naviyatni ijtimoiy ongni transformatsiya qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar vorisiyligini ta'minlash, shaxsning intellektual-ma'naviy va yaratuvchanlik salohiyatini faollashtirish asosida modernizatsiya qilish, uning obyektiv shart-sharoitlari hamda subyektiv omillari uyg'unligini maqsadli va tizimli ta'minlash zarurati asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ma'naviy ong shakllari insonning ma'naviy qarashlariga, uning xulq-atvori, yurish-turishi va amaliy harakatlariga mazmun, yo'nalish hamda maqsad bag'ishlashi hamda kishining axloqiy fazilatlarida, kasbiga bo'lgan munosabatida yuzaga chiqishi asoslab berilgan;

ma'naviyat va ijtimoiy ongning o'zaro bog'liqligiga doir nazariy yondashuvlar tizimlashtirilib, ulardan ma'naviy-ma'rifiy faoliyat sohalarida foydalanish imkoniyatlari, ta'lim-tarbiya jarayonida ma'naviy ong va ma'naviy madaniyat uyg'unligini ta'minlash zarurati aniqlashtirilgan;

Yangi O'zbekiston sharoitida ta'lim-tarbiya tizimidagi islohotlar ma'naviyat va ijtimoiy ong o'rtasidagi bog'liqlikni ro'yobga chiqarishi, shaxs imkoniyatlarini namoyon etishiga ta'sir etuvchi obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar ma'naviy-ma'rifiy faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ma'naviyat va ijtimoiy ong o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni ochib berishda, qadriyatlar va insonparvar mazmunga ega jihatlarini integratsiya qilishda, ijtimoiy ong shakllarini ma'naviyat tizimining tarkibiy qismlari sifatida talqin qilishda, ma'naviyat nazariyasini takomillashtirishda, shuningdek, Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratuvchi yoshlarning o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar mutanosib rivojlanishini va ma'naviy tarbiyaning ahamiyatiga doir tadqiqotlarda nazariy-metodologik asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, ilmiy-ommabop materiallar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ssenariylari va targ'ibot dasturlarini tayyorlashda, ma'naviyat va ma'rifat markazi, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda siyosiy partiyalar

faoliyatida, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida "Ma'naviyatshunoslik", "Falsafa" kabi fanlarni o'qitishda, foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ma'naviyat va ijtimoiy ong bog'liqligini tadqiq qilish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

ma'naviyat taraqqiyotiga ijtimoiy ongning aksiologik, reprezentativ va regulativ funksiyalarining ma'naviy qadriyatlarni saralash va iyerarxialashtirish, shaxs va jamoa faoliyatini yo'naltirishga qaratilgan funksional-determinant ta'siri hamda falsafiy, axloqiy, siyosiy-huquqiy shakllarining qadriyatlarni tanlash, ijtimoiy me'yorlarni legitimlashtirish va shaxs ma'naviy identikligini shakllantiruvchi xususiyatlariga oid xulosa va tavsiyalardan Qarshi davlat universitetida bajarilgan 21-05/1t-8-son "Ma'naviy yetuk yoshlar – porloq kelajak sari yo'l boshlar" (2023-2024 yy) grant loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2025-yil 28-maydagi 04/2200-son ma'lumotnomasi). Natijada, grant loyihasining nazariy-metodologik asoslarini ma'naviyat va ijtimoiy ong shakllari o'rtasidagi o'zaro ta'sir, yoshlar ma'naviy kamoloti, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga oid ilmiy yondashuvlar bilan boyitishga xizmat qilgan;

rivojlanish jarayonida ma'naviyat butun sifatida ijtimoiy ong shakllariga tizimli (ong shakllarini ma'naviy butunlik doirasida uyg'unlashtiruvchi), integrativ (funktional va aksiologik aloqalarni bir maqsadga yo'naltiruvchi) va yo'naltiruvchi (ijtimoiy xulq-atvor, munosabat va faoliyat mezonlarini belgilab beruvchi) ta'sir etishi, qism sifatida esa kishining ijtimoiy ideal va maqsadlariga qadriyatli-motivatsion (shaxs ma'naviy ehtiyoji, intilishi va e'tiqodini faollashtiruvchi), faoliyatga undovchi (amaliy harakat va ijtimoiy faollikka aylantiruvchi) tizim sifatida ta'sir ko'rsatishiga doir xulosa va tavsiyalardan Qashqadaryo viloyat teleradiokanali "Oltin voha" radiosining 2024-yil 23-aprel kuni "Nuqtai nazar" hamda 2025 yil 3-fevral kunlari e'fira berilgan "Kelajak bunyodkorlari" teleradioeshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi Qashqadaryo viloyat teleradiokanali davlat muassasasining 2025-yil 7-apreldagi 17-05/63-son ma'lumotnomasi). Natijada, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash hamda Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning inson ma'naviy dunyoqarashiga ta'siri haqida ilmiy asoslangan axborot yetkazishga xizmat qilgan;

ma'naviyatning insonparvar mazmun-mohiyati hamda u ifodalaydigan milliy o'zlikni anglash, adolat, vatanparvarlik, mas'uliyat, bag'rikenglik va jamoaviy hamjihatlikka asoslangan qadriyatlar tizimi jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy muhitiga determinant aloqadorligi, ma'naviyatning inson va jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy ravishda aloqadorlikda rivojlanib borishi esa shaxsning ma'naviy kamoloti, ijtimoiy munosabatlarning barqarorlashuvi va milliy taraqqiyotning qadriyatli asoslari orqali namoyon bo'lishiga oid tavsiya va xulosalardan Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat markazi faoliyatida, 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining II yo'nalishida belgilangan "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi mazmun-mohiyati hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar targ'iboti" 10-bandi "Avval inson, keyin – jamiyat va davlat" g'oyasini aholi ongiga chuqur singdirish hamda milliy davlatchiligimiz

asoslarini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy-amaliy va targ'ibot ishlarni tashkil etish" mavzusida targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan. (Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 2-maydagi 10/253-son ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar strategiyasini hayotga joriy etish jarayonida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish jarayonida hamda O'zbekiston yoshlarining ma'naviy faolligini oshirish bilan bog'liq muammolarni o'rganishda va "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini rivojlantirish konsepsiyasi"ni amalga oshirishga xizmat qilgan;

Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etuvchi avlodni shakllantirishda ma'naviyatni ijtimoiy ongni transformatsiya qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar vorisiyligini ta'minlash, shaxsning intellektual-ma'naviy va yaratuvchanlik salohiyatini faollashtirish asosida modernizatsiya qilish, uning obyektiv shart-sharoitlari hamda subyektiv omillari uyg'unligini maqsadli va tizimli ta'minlash zaruratiga doir mulohazalardan "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining 2025-2029-yillarga mo'ljallangan saylovoldi dasturi "Ma'naviy yuksalish va madaniyatni rivojlantirish" bobi 2.1. Milliy madaniyat va ma'naviyatni rivojlantirish, qadriyatlarni asrash va boyitish yo'nalishida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi Markaziy Kengashining 2025-yil 30-maydagi 02/02-53-son ma'lumotnomasi). Natijada, partiya tizimida faoliyat olib borayotgan xodimlarning ma'naviy-ma'rifiy bilim va malakasini rivojlantirishga, o'quv-uslubiy hamda mafkuraviy targ'ibot faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola (7 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 144 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Ma'naviyat va ijtimoiy ong bog'liqligining nazariy-metodologik tahlili**" deb nomlanib, unda ma'naviyat va ijtimoiy ongning

tarkibiy tuzilishi, shakllari va mohiyati, ijtimoiy taraqqiyot jarayonida ma'naviyat va uning transformatsiyasi hamda ularning o'zaro munosabatlari tadqiq etilgan.

Ma'naviyat avvalo, ma'naviy ong va uning predmetlashgan shakli – ma'naviy madaniyatdan tashkil topgan⁶. Unga qisman irodaning ayrim ratsional elementlari, xususan erkin tanlash va oldiga aniq maqsad qo'ya olish hamda ijtimoiy muhitning kreativ ta'sir ko'rsatuvchi omillari kiradi. Ma'naviyat boshdan butunlik sifatida ibtidoiy odamning o'zini anglashi, atrof-muhit va tabiat bilan ongli munosabatga kirishishi jarayonida shakllangan. Ibtidoiy jamiyat ongiga xos sinkretizm, uning qashshoqligi va alohida shakllarga bo'linmagani ma'naviyat butunlik bo'lishini belgiladi.

Dissertant fikricha, ma'naviy ong insoniy his-tuyg'ulardan boshlanadi va so'ng tafakkurga o'tadi. "Ong falsafa, psixologiya va sotsiologiya fanlarining asosiy tushunchalaridan biridir. U insonning ijtimoiy mavjudot o'laroq, oliy darajadagi psixologik faolligini anglatadi. Bunday faollikning o'ziga xosligi shundan iboratki, u voqelikni hissiy va aqliy shakllarda aks ettirib, inson amaliy harakatlarini oldindan belgilaydi va ularni maqsadga yo'naltiradi"⁷. Shunga ko'ra, ong ikki darajadan tashkil topgan, bu ma'naviy ongga ham taalluqli va uning darajalari mavjud.

Tadqiqotda inson ma'naviy ongi darajalari quyidagicha asoslab berilgan:

birinchi daraja – insoniy his-tuyg'ular (uyatchanlik, hayo, ibo, tortinchoqlik, xayrixohlik, mehribonlik, rahm-shafqat, ishq, muhabbat, sevgi, go'zallikdan zavq, hayratga tushish, kulgi, nafs, hirs, xasislik, qahr, g'azab, jahl chiqishi va hokazo.); Insoniy his-tuyg'ular o'z navbatida zavq-shavq tuyib lazzatlanish, ko'tarinkilik, ijodkorlik, xursand bo'lish, minnatdorlik tuyg'usi, yoki vijdon azobi, tushkunlik (depressiya), arazlash va shu kabi kechinmalarni, davomli emotsional holatni yuzaga keltiradi, inson didini, obyektga munosabatni shakllantiradi. Ular ma'naviyatning hissiy-psixologik asosini tashkil qiladi.

ikkinchi daraja – ma'naviy tushunchalar (ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, sadoqat, mardlik va halollik, umumiy manfaatlarni anglash, o'zlikni anglash, milliylik, jamoaviylik, haqiqat, adolat, tenglik, go'zallik, e'tiqod, vijdon, baxt, vatanparvarlik, insoniylik va hokazo) dan boshlanadi. Ular rivojlanib, mazmunan boyib, ma'naviy mulohazalarga, qarashlarga, mezonlarga, tamoyillarga, o'z navbatida ular esa ma'naviy nazariyalar, ta'limotlar va ma'naviy ideallarga aylanib boradi. Ular ma'naviyatning g'oyaviy-mafkuraviy mazmunini tashkil qiladi.

Ijtimoiy ongdan ma'naviy ong shaklan emas, mazmunan farq qiladi. Ijtimoiy ongda nafaqat ijobiy, shuningdek salbiy mazmunga ega his-tuyg'ular, o'tkinchi ehtiroslar, tushunchalar, buzg'unchi g'oyalar, xato va muvaqqat qarashlar ham uchraydi⁸. Ularning ijobiy mazmundagilari ma'naviyatga, salbiy mazmundagilari, odatda, ma'naviyatsizlikka oid hisoblanadi.

Dissertatsiyada ong va ma'naviy ong to'g'risida fikr yuritilib, bu masalaga antik davr olimlari, xususan Platon, islom mutafakkirlari, yevropalik R.Dekart, I.Kant, Gegel, sovet davri konsepsiyalari, zamonaviy postmodernizm qarashlari

⁶ Эркаев А. "Маънавиятшунослик". 2-китоб. - Тошкент: "Маънавият". 2018. – Б.29

⁷ Философский энциклопедический словарь. – М., 1983. – С.622

⁸ Спиркин А.Г. Сознание и самосознание. – М., 1972. \ Демин М.Б. Анализ структура сознания. – М., 1980. \ Уледов А.К. Структура общественного сознания. М., 1968

qisqacha tahlil qilinadi. Shundan keyin ma'naviyat rivojlanishi xususiyatiga, aniqrog'i ma'naviyat butunligi va uning qismlari dialektikasi tahliliga o'tilgan. Ma'naviyatning butunlik sifatida rivojlanishiga bevosita uning tarkibiy qismlari rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviy ong jamiyatda qanchalik darajada rang-baranglik kasb etsa, uning predmetlashuvi sifatida ma'naviy madaniyat ham shunchalik darajada mazmunan va shaklan boyiydi. Ma'naviy madaniyat yuksalishi o'z navbatida inson va millatning imon-e'tiqodi, irodasi mustahkam bo'lishiga, ma'naviy muhit yaxshilanishiga, yaratuvchilik, ijtimoiy faollik o'sishiga bevosita xizmat qiladi. Jamiyatda huquqiy va siyosiy ong va madaniyatning pastligi va inson irodasi bo'sh bo'lishi o'z haq-huquqlarini yetarlicha talab qilolmasligi, jamiyatga va o'ziga befarq bo'lishi, jamoatchilik nazorati va oshkoralik, shaffoflik qaror topmasligiga sabab bo'ladi.

Ma'naviyat butunlik va yaxlit tizim sifatida kishilarning maqsadlarini, ijtimoiy mo'ljallarini belgilaydi. Inson o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishish uchun rejalar tuzadi, vositalar tanlaydi, irodasini ishga soladi, tajriba to'playdi, bilimlarini boyitadi. Shuningdek, jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni isloh qilib, ularni takomillashtiradi, yangi axloqiy, siyosiy, huquqiy va boshqa me'yorlar yaratadi, ba'zilarini qayta ishlab chiqadi. Taraqqiyotga xalal beradigan, o'z umrini yashab bo'lgan me'yorlaridan voz kechadi va h.k. Shunday qilib, butunlik o'z qismlarini rivojlantiradi. Binobarin, axloq, huquq, ilm-fan, iroda va ma'naviy muhit ham oqibatda jamiyatning, insonning maqsadlarini va ijtimoiy mo'ljallarini aks ettiruvchi, bus-butunlikni tashkil qiluvchi ma'naviyat orqali insonning, jamiyatning konkret talablari va yangidan paydo bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash uchun rivojlanadi.

Tadqiqotda inson, jamiyat ma'naviy hayoti bus-butunlik sifatida urf-odatlar, marosimlar, an'analar, bayramlar, turli sanalarni nishonlash, dam olish, kitob o'qish, tomosha ko'rish, o'yin o'ynash kabilarni ham o'z ichiga olishi qayd etilgan. Ular, odatda, axloq (urf-odatlar va h.k.), nafosat (kitob o'qish, teatr, televideniye va estrada tomoshalari, turizm va h.k.), siyosiy ong (siyosiy bayramlar, namoyish va mitinglar, saylovlar va h.k.), diniy ong (diniy bayramlar, toat-ibodat marosimlari va h.k.) o'rtasida taqsimlanadi. Ular ma'naviyat qismlarining bo'laklaridir, bus-butun ma'naviyatning esa elementlaridir. Ushbu nisbatda umumiylik, xususiylik, alohidalik dialektikasi namoyon bo'ladi. Masalan, ma'naviyat butunlik o'laroq umumiylik, axloq unga nisbatan qism – xususiylik bo'lsa, o'z navbatida axloq urf-odatlariga, marosimlar, an'analarga nisbatan butunlik (umumiylik), ular esa axloqqa nisbatan qism (xususiylik), butun ma'naviyatga nisbatan esa alohidalik (element) maqomida turadi.

Ma'naviyat butunlik sifatida rivojlanishini ijtimoiy talablar, ijtimoiy zarurat belgilaydi. Ular "asl ma'naviyat"ga emas – insonning ijtimoiy va psixologik xususiyatlariga (ya'ni insonning moddiy ahvoliga, jamoadagi mavqeyiga, ijtimoiy submuhitiga, irodasiga) taalluqli bo'lishi mumkin, ma'naviy ongga emas. Uning tegishli qismlariga ma'naviyat orqali kirib boradi va ularni rivojlantiradi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, ma'naviyat jamiyat taraqqiyoti darajasi, hukmron g'oyalari va amaliy ijtimoiy tuzumi xususiyatlari bilan belgilanadi. Ma'naviyat nisbatan mustaqil tarkibiy qismlardan iborat. Ma'naviyat tizimini tashkil

etuvchi elementlar shartli ravishda ikki asosiy guruhga bo'linadi. Birinchi guruh murakkab ichki strukturaga ega bo'lgan, nisbatan mustaqil ijtimoiy ong va tafakkur shakllari hamda ularga mos madaniy ko'rinishlarni qamrab oladi. Ikkinchi guruh esa ma'naviyatning mohiyatini ifodalovchi umumiy tushuncha va kategoriyalarni, shuningdek, ijtimoiy ongning muayyan shakllariga tegishli bo'lgan ilmiy kategoriyalar tizimini o'z ichiga oladi. Shu bois ma'naviyat tizimining barqaror taraqqiyoti uning tarkibiy elementlari o'rtasidagi muvozanat va uyg'unlikning ta'minlanishiga bog'liqdir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ma'naviyat va ijtimoiy ong shakllari integratsiyasining namoyon bo'lish xususiyatlari”** deb nomlangan bo'lib, mazkur bobda ijtimoiy ong shakllarining ma'naviyat tizimiga o'zaro ta'siri hamda uning takomillashuviga ta'siri, ma'naviy ong va madaniyat elementlarining ma'naviyat tizimi rivojidadagi ahamiyati ochib berilgan.

Ma'naviyat sistemasining asosiy tarkibiy elementlari falsafiy, axloqiy va diniy g'oyalar, qadriyatlar, siyosiy va huquqiy me'yorlar, qonunlar va qoidalar, estetik, iqtisodiy ekologik g'oyalar, baholar, urf-odatlar, an'analar, marosimlar, bayramlar, har xil aksiyalar, shoular, tanlovlar, sport musobaqalari, faol dam olish turlari va h.k. hisoblanadi⁹. Bu elementlar mazmun-mohiyati va maqsadiga qarab ijtimoiy ong va madaniyatning turli shakllariga tegishli, ularning rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shishi mumkin. Masalan, siyosiy mitinglar, aksiyalar, hukumatning tegishli qarorini qo'llab-quvvatlovchi, yoki unga qarshi norozilik namoyishi tashkil qilinishi aholining siyosiy ongi va madaniyatiga, jamiyatning ma'naviy muhitiga ta'sir ko'rsatadi.

Dissertatsiyada yaxlit ma'naviyat tizimida ma'naviy ong shakllari o'z qonunlari doirasida rivojlanib, bir-birini to'ldirib borishi asoslab berilgan. Ma'naviyat tizimi doirasida ijtimoiy ong elementlari o'zaro aloqalarga kirishadi va bir-birini boyitadi, yoki deformatsiyaga uchratadi. Ulardan ayrimlari, hatto alohida g'oya muayyan muddat umumiylik kasb etishi, bosh milliy g'oyaga aylanishi mumkin. Masalan, yov bostirib kelganda, vatanparvarlik, yoki milliy mustaqillikni himoya qilish bosh milliy g'oyaga aylanib, tajovuzga uchragan xalqning dunyoviy-ma'naviy e'tiqodi darajasiga ko'tarilishi, milliy ruhiyatini belgilashi mumkin.

Bilish nazariyasida, shu jumladan ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda butunlikka tizim sifatida qarash, uni o'rganishga tizimli yondashuv zarurligi qaror topdi¹⁰. Butunlik va tizim o'rtasida prinsipial farq yo'q. Ayniqsa, butunlik murakkab tarkibli bo'lsa. Farq faqat tadqiqotga qaysi rakursdan yondashuvga bog'liq. Tizimli yondashuvda tahlil, birinchidan, alohida elementlar darajasiga tushadi. Ikkinchidan, yirik funksional imkoniyatlari nisbatan mustaqil elementlar o'rtasida iyerarxik munosabatlar aniqlanadi va o'rganiladi. Bu abstraktlikdan (mavhumlikdan) konkretlikka (aniqlikka) ko'tarilish uchun muhim.

Ma'naviyat – ijtimoiy hodisa o'laroq faqat jamiyatda, ijtimoiy munosabatlar jarayonida yuzaga keladi. Demak, ma'naviyat insonlarning o'zaro ijtimoiy munosabatlarida, ularning faoliyatida, ijodida, xulq-atvorida yuzaga chiqadi. Ya'ni

⁹ Nazarov Q. Ma'naviyat asoslari. - Toshkent: “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi”. 2010. – B.15

¹⁰ Davronov Z. Dialektika: qonunlar, kategoriyalar, tamoyillar, bilish falsafasi. Monografiya. – T.: Iqtisod-Moliya, 2024. – B. 57

ma'naviyat inson faoliyatida predmetlashadi. Kishilar o'rtasidagi munosabatlar jarayonida asrlar davomida shakllangan, sayqallanib, qadriyatga aylangan sobit g'oyalar, qarashlar, masalan, adolat, mehr-oqibat, vatanparvarlik, to'g'riso'zlik, go'zallik, nafosat tushunchalari, uyat yoki sharm-hayo, ibo kabi tuyg'ular va vijdon, burch, baxt, e'tiqodga sodiqlik, tolerantlik, qonun ustuvorligi kabi murakkab tushunchalar, odamlarning ijodkorligi, idroki – bularning barchasi inson ma'naviy ongining yaxlit tizimini tashkil etadi.

Tadqiqotchi fikricha, ma'naviyat yaxlit tizim ekan, u to'xtab qolmaydigan jarayon sifatida ijtimoiy ong shakllari, ularning g'oyalari, kategoriyalari, tamoyillari bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanadi. Jamiyat hayotida kundalik ma'naviy-axloqiy madaniyatni tashkil etuvchi sodda, oddiy, birlamchi tushunchalar – elementlar mavjud. Halollik va rostgo'ylik ana shunday axloqiy me'yorlardandir. “Halol odam shundayki, u qonuniy olishi mumkin bo'lgan ne'matlardan ozrog'ini olishga rozidir. Shunday narsalar borki, qonun chiqaruvchi (davlat) ne'matlarning tegishli miqdorini aniq belgilamay, “Shu narsa beriladi”, deb umumiy qilib aytgan bo'ladi. Qonun chiqaruvchi (miqdorini) aniq belgilayolmagan narsalarni olishda ozrog'iga rozi bo'lgan odam qanoatlidir. Ammo bu o'zining qonuniy haqidan voz kechish, degan so'z emas. U tabiiy va haqiqiy ne'matlarni olishda o'zini kamsitmaydi, u faqat qonun aniq belgilashni unutgan narsalarni olishdagina o'ziga qanoat qiladi”¹¹, deb Arastu o'zining “Axloqi kabir” asarida ta'kidlagan. Bular ma'naviyat yaxlit tizimi rivojlanishiga, mazmunan teranlik kasb etishiga hissa qo'shadi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, ma'naviyat tizimi tarkibidagi har bir komponent o'ziga xos tushunchalar, tamoyillar va me'yorlar majmuasidan iborat bo'lib, u hissiy-emotsional hamda aqliy-mafkuraviy shakllarda namoyon bo'ladigan tarixiy hodisa sifatida qaraladi. Ularning mazmuni va shakli jamiyat taraqqiyoti hamda ijtimoiy munosabatlar o'zgarishi ta'sirida doimiy ravishda yangilanib boradi. Natijada ular mazmunan boyib, shaklan rang-baranglashadi yoki ayrim hollarda o'z ahamiyatini yo'qotishi mumkin. Xususan, inson huquqlari va erkinliklari tushunchasi tarixiy jarayonda kengayib, yoshlar, xotin-qizlar hamda nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlariga oid yangi yo'nalishlar bilan boyib borgan, bu esa jamiyat ma'naviy ongi va madaniyatining o'zgarishiga olib kelgan. Natijada ma'naviyatning tarkibiy tuzilmalari, qismlari rivojlanishi uni bus-butunlik va yaxlit tizim sifatida rivojlantirdi. Siyosiy ong va qarashlar, demokratiyani rivojlantirish, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash va h.k. ma'naviyat tizimiga ta'sir ko'rsatib, uning tuzilmalari o'zaro aloqalarini kuchaytiradi, insonparvarlik mazmunini mustahkamlaydi. Bu o'z navbatida fuqarolarning vatanparvar, ijtimoiy faol bo'lib o'sishiga ma'naviy-tarbiyaviy sharoit yaratadi. Huquqiy ong yuksalishi oqibatida, demokratiya, inson huquqlari va erkinliklari hamda gender tengligi tamoyillari bugungi kunda umuminsoniy ahamiyat kasb etib, ma'naviy ong va madaniyatning ajralmas talablariga aylangan. Mazkur jarayon esa ma'naviy tizimning mazmunan boyishi, funksional jihatdan takomillashuvi va har tomonlama rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Elementlar ta'sirida nafaqat ma'naviyat tizimi,

¹¹Arastu “Axloqi Kabir”. Ikkinchi kitob. – T.: Yangi asr avlodi, 2015. – B. 159

shuningdek amaliy xatti-harakatlar va davlat siyosatining tegishli yoʻnalishi ham takomillashmoqda.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Oʻzbekistonda ijtimoiy islohotlarning chuqurlashtirilishi – milliy maʼnaviyatimiz yuksalishining omili”** deb nomlangan va ushbu bobda mamlakatimizda taʼlim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning Yangi Oʻzbekistonning Uchinchi Renessans poydevorini yaratuvchilarini shakllantirishdagi roli va bu maqsadda yaratilayotgan obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar tahlil qilingan. Bobda shuningdek, inson ongi, tafakkuri yuksalishi jarayonida tom maʼnoda uning oʻzini ham, jamiyatni ham qayta yaratishi – maʼnaviyat rivojlanishini olib borilayotgan islohotlar natijalari rakursida ochib berilgan.

Taʼlim-tarbiya tizimidagi islohotlar ikki yoʻnalishda amalga oshirilmoqda. Birinchisi, uning moddiy bazasini mustahkamlash, yangi zarur obyektlar barpo etish, darsliklar, oʻquv qoʻllanmalari, fundamental axborot-resurs va laboratoriya, ilmiy-tadqiqot markazlari, ular uchun zarur asbob-uskunalar va jihozlar, oʻquv-tarbiya va media vositalari bilan qurollanganlik darajasini oshirib borish. Ikkinchisi, oʻqituvchi va tarbiyachi kadrlarni tayyorlash, taʼlim-tarbiyaning zamonaviy uslubiyatini, metodikasini joriy etish va takomillashtirib borish¹².

Dissertatsiyada maʼnaviyatni yanada rivojlantirishda Oʻzbekistonda obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar yetarlicha hisobga olinayotganligi haqida fikr yuritilib, misollar va normativ-huquqiy hujjatlar bilan asoslangan. Avvalo, maʼnaviyat rivojlanishi uchun moddiy- iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilmoqda, sohaning moddiy bazasi mustahkamlanmoqda. Shveysariyalik atoqli sharqshunos Adam Mets fanga Islom Renessansi tushunchasini kiritdi¹³. Unga koʻra, IX-XI asrlar islom Renessansi davridir. Adam Mets fikrini rivojlantirib, olimlar Renessans umuminsoniy hodisa ekani toʻgʻrisida gʻoyani olgʻa surdilar. Keyinchalik bizning olimlar oʻzbek xalqi ikki Renessansni boshdan kechirganini – birinchisi umumislomiy Renessans (IX-XII asrlar), ikkinchisi – Temuriylar davri Renessansi (XIV asr oxirgi choragi – XVI asr birinchi choragi) asosladilar. Renessans jamiyatni oʻzgartirib, tafakkur, xulq-atvor va ijtimoiy tuzilmalarda jiddiy oʻzgarishlarni taʼminladi. “Islom Renessansining asosiy harakatlantiruvchi kuchi, lokomotivi ilm-fan edi. Yevropa Renessansida esa oʻrta sharqnikidan farqli, maʼnaviy erkinlik va gumanizmni bayroq qilib olgan adabiyot va tasviriy sanʼat yetakchilik qilgan edi”¹⁴.

Tadqiqotchi fikricha, Uchinchi Renessans avvalo, xalqning ilgʻor yaratuvchilik, kreativ faolligini, maʼnaviy passionarlikni bildiradi. Xalq eng zamonaviy ilmiy-texnologik va gumanitar bilimlarni oʻzlashtirib, yangiliklar yarata olsagina, bu borada ilgʻor, yetakchi xalqlar qatoriga koʻtarila olsagina, Renessansga qadam qoʻyadi, mamlakat gullab-yashnaydi. Bunga avvalo taʼlim, ilm-fan, maʼnaviy tarbiya orqali erishiladi. Maʼnaviy tarbiya jarayonida avvalo yoshlar ongiga ilgʻor milliy va umuminsoniy axloqiy, huquqiy, siyosiy, estetik, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, ilgʻor texnologik gʻoyalarni singdirish zarurligi va ahamiyati asoslangan.

¹² Oʻzbekiston Respublikasi “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni. \ <https://lex.uz/docs/-5013007/>

¹³ Erkayev A. Yangi Oʻzbekiston: moʻljal – Uchinchi Renessans. – T.: Maʼnaviyat, 2021. – B. 6

¹⁴ Erkayev A. “Yangi Oʻzbekiston: moʻljal – Uchinchi Renessans” – T.: Maʼnaviyat, 2021. – B.77

